

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z TURKUMLARINI  
O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING  
AHAMIYATI**

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti  
Fayzulloeva Dildora.*

**Annotatsiya.** Maqolaning asosiy mazmunida boshlang'ich sinflarda so'z turkumini o'rgatishda interfaol metodlar hamda ularning turlari haqida so'z boradi.

Shu bilan birga, ona tili va oqish savodxonligi fanini o'qitishda O'quvchilarga morfologik tushunchalarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutqni grammatik jihatdan to'g'ri tuzishni o'rgatishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan ham biz tanlagan mavzu dolzarb.

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinf, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, so'z turkumlari, metod, grafik test, zamonaviy metodlar,*

**Аннотация.** Основное содержание статьи рассказывает об интерактивных методах и их видах в обучении лексике в начальных классах. В то же время при обучении родному языку и беглой грамотности учащихся следует обучать морфологическим понятиям, формированию речевых навыков, грамматически правильному построению речи. С этой точки зрения выбранная нами тема актуальна.

**Ключевые слова:** *Начальный класс, педагогические технологии, интерактивные методы, лексика, методика, графический тест, современные методы*

**Abstract.** In the main content of the article, interactive methods in primary grades, their types, the role of modern technologies in the educational process, methods of application in primary grades, modern pedagogy of primary grade teachers of general secondary schools opportunities to use technologies

**Keywords:** *pedagogical technologies, interactive methods, form, method, tools, brainstorming, networks, modern methods, modern form of teaching, internet,*

Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev o'zining "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida alohida ta'kidlanganidek "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".

Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda dars jarayonini interfaol metodlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalar asosida aniq va mukammal ishlab chiqish

ta'lim jarayonini samarali tashkil etish dolzarb muammolardan biri. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish konikmasi ularning belgilari yigindisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan gul, gulsiz, gulladi sozlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun 2-sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi. Nima-gul, bu so'z narsani bildiriyapti, ko'plikda qo'llaniladi-gullar, bu-ot. Guldor so'zi qanday so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning belgisini bildiriyapti, bu-sifat; gulladi so'zi esa nima qildi so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning holatini bildiriyapti, bolishsiz shaklda qo'llaniladi-gullamadi, bu-fe'l. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ostirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fellar bilan boyitish o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan sozlarning manosini aniq tushunishga erishish, boglanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini ostirish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rgatishda yangi innovatsion metodlar-zig-zag, moychechak, davra suhbat, fikrlash, faollik, kuzatish, aqliy hujum, zinamazina, klaster, suhbat kabi metodlardan foydalanish kerak. Interfaol metodidan foydalanishning maqsadi o'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirish, dars jarayonida mustaqil fikrini bildira olish qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijodkorlik qobiliyatini shakllanishiga zamin yaratib boradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

#### GRAFIK TEST

- 1. Qancha?, nechta? so'rog'iga javob bo'lgan so'z
- 2. Ko'rkam, chiroyli, baland
- 3. O'rikzor, toshloq, gulzor
- 4. Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'z
- 5. Sanoq va tartibni bildirgan so'z
- 3. Men, sen, u, biz, siz, ular
- 2. Kuyladi, sakradi, tinglayapti
- 1. Shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'z

Grafik test				
Ot	Sifat	Son	Fe'l	Kishilik olmoshi
1				
2				
3				
4				
5				

  

Grafik test				
Ot	Sifat	Son	Fe'l	Kishilik olmoshi

Xulosa qilib aytganda ilg'or pedagogik va interfaol metod va didaktik o'yinlar texnologiyalardan foydalanish o'quvchining o'rganish jarayonini jadallashtiradi, hamda mustaqil fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatini tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarini hal etish, o'rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishishga o'rgatadi. Zamonaviy ta'lim dasturlaridan xabardor bo'lish imkonini beradi. o'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi .

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son // <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi dasturi // Boshlang'ich ta'lim j. – T.: 2005. – №5. –21-33-b.
3. Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi / Mualliflar: Q.A.Abdullaeva, R.G'.Safarova, M.O.Ochilov, K.N.Nazarov, N.U.Bikbaeva, M.A.Zaynitdinova // Boshlang'ich ta'lim j. – T.: 1998. № 6. – 12-18-b.
4. G.Boymurodova, X.Sattorova va b. "O'qish" 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.-T.: "Sharq", 2016.-240 b
5. K. Qosimova, A. Ne'matova. 2-sinfda ona tili darslari. T.:Cho'lpon, 2004.y. 115-b